



Abatbay KLICHBAYEV,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining mustaqil tadqiqotchisi

Respublika yig'ma elektron katalog markazi direktori Z. Nosirova taqrizi asosida

DAVLAT ILMIY TIBBIYOT KUTUBXONASINING KADRLAR BILAN TA'MINLANISHI VA UNING TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat ilmiy-tibbiyot kutubxonasi, tashkil etilishi tarixi haqida umumiy ma'lumotlar, kutubxonaning dastlabki yillaridan to bugungi kunga qadar kadrlar bilan ta'minlanish holati tahlil qilingan.

Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasining rahbarlari hamda shu davrlarda ularning kutubxona ishini rivojlantirishga qo'shgan hissasi hamda shu davrlarda faoliyat olib borgan tajribali mutaxassislar haqida ham umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiyot kutubxonalari, bo'limlar, kadrlar, shtat, lavozim.

КАДРОВОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ И АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НАУЧНОЙ МЕДИЦИНСКОЙ БИБЛИОТЕКИ

Аннотация

В данной статье анализируются государственная научно-медицинская библиотека, общие сведения об истории ее создания, состояние кадрового обеспечения библиотеки с первых лет ее существования до наших дней. Также представлена общая информация о руководителях Государственной научной медицинской библиотеки, их вкладе в развитие библиотечного дела в этот период и опытных специалистах, работавших в этот период.

Ключевые слова: Медицинские библиотеки, отделы, кадры, штат, должность.

STAFFING OF THE STATE SCIENTIFIC MEDICAL LIBRARY AND ITS ANALYSIS

Annotation

The article examines the State Scientific Medical Library, its history of formation, and the evolution of its personnel from its establishment to the present day. Special attention is given to the activities of the library's leaders, their contribution to the development of librarianship, and the role of experienced specialists who have made a significant impact on its growth.

Additionally, the article explores the challenges faced by the library at different stages of its development and highlights key achievements in expanding its collections and improving services. The significance of the library in supporting scientific research and medical education is also emphasized.

Key words: Medical libraries, departments, personnel, staff, position.

Kirish. Davlat ilmiy-tibbiyot kutubxonasi O'zbekistonda biotibbiy adabiyotlar eng ko'p saqlanadigan muassasa sifatida faoliyat ko'rsatadi. Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi va uning Toshkent shahridagi ilmiy-tadqiqot muassasalarida 12 ta filiali, tibbiyot oliy o'quv yurtlari va ularning viloyatlardagi filiallari kutubxonalari va axborot-resurs markazlari, 12 ta viloyat ilmiy tibbiyot kutubxonalari, tibbiyot kollejlari kutubxonalari va respublika markaziy tuman shifoxonalari qoshida 200 dan ortiq tibbiyot kutubxonalari mavjud.

O'zbekiston tibbiyot kutubxonalari besh milliondan ortiq fond mavjud bo'lib, ular har yili 250 mingga yaqin tibbiyot mutaxassislariga xizmat ko'rsatadi, ularga uch milliondan ortiq adabiyot nashrlari beriladi. Tuzilmani Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi boshqaradi.

Tahlillar. 1935-yil 1-iyundan teri-tanosil ilmiy tadqiqot instituti kutubxonasi zaminida O'zbekiston Sog'liqni saqlash Xalq komissarligi xodimlariga xizmat ko'rsatish maqsadida tibbiyot kutubxonasi tashkil etilgan[1].

Shu yil kutubxona mudiri lavozimiga Mestnik Tamara Moisevna tayinlanadi va 1936-yil 1-yanvardan boshlab kutubxona shtatida - pochta ekspeditori lavozimi joriy etiladi. Kutubxona maqomiga ham o'zgartirish kiritilib markaziy ilmiy-tibbiyot

kutubxonasiga aylantirilib, Toshkent shahridagi barcha tibbiyot xodimlariga xizmat ko'rsatish vazifasi belgilanadi. Shu yilning may oyidan kutubxona xodimlari soni 6 ta ko'paygan[2].

1939-yil Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi deb nomlandi va alohida budjetga ega 16 kishidan iborat mustaqil tashkilotga aylangan.

1944-yil 25-oktabrdan kutubxonaga Zoya Arkadevna Kostrova direktor vazifasiga tayinlanadi va uning sa'y harakatlari bilan 1944-yildan kutubxona shtatlari soni 21 kishiga ko'paytiriladi (ulardan 5 nafari ma'muriy-xo'jalik xodimlari va 16 nafari operativ xodimlardir). [3].

Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasining 1947-yilda kutubxona tuzilmasi

Komplektlash va adabiyotlarga qayta ishlov berish

Kitob saqlash

Kitobxonalarga xizmat ko'rsatish

Bibliografiya

Ma'muriy-xo'jalik bo'limidan iborat bo'lgan va unda 21 ta xodim ish faoliyatini olib borgan [4].

Mazkur bo'limlarda ishlagan xodimlar haqida ma'lumotlarni quyidagi jadvalda misol keltirildi. Demak 20 yildan ortiq stajga ega xodimlar

Familiyasi I.Sh	Lavozimi	Tug'ilgan yili va yoshi	Ma'lumoti	Staji	Xorijiy tillarni bilishi
Selezneva N.	Bibliografiya bo'limining mudiri	1905	O'rta maxsus 3 yillik kutubxonachilik kurs	21	---

15 va undan ortiq yil stajga ega xodimlar - 3 ta

Familiyasi I.Sh	Lavozimi	Tug'ilgan yili va yoshi	Ma'lumoti	Staji	Xorijiy tillarni bilishi
Kostrova Z.A.	Direktor	1894 53	O'rta O'zbekiston Fanlar qo'mitasi qoshidagi ilmiy kutubxonalar kursi	16	fransuz va nemis
Drobinskaya M.A	Redaktor	1885 62	O'rta maxsus O'zbekiston Fanlar qo'mitasi qoshidagi ilmiy kutubxonalar kursi	15	fransuz va nemis

Shishova K.G.	Katta redaktor	1901 46	Tugallanmagan oliy	17	ingliz va fransuz
---------------	----------------	------------	--------------------	----	-------------------

5 yildan ortiq stajga ega xodimlar - 5 ta

Zelenskaya Ye.B.	Kitob saqlash bo'limi mudiri	1894 53	Oliy	6	fransuz va nemis
Popova Ye.P.	O'quv zali mudiri	1899 48	O'rta	6	nemis
Nazarova K.S.	Abonement sektori boshlig'i	1904 43	Tugallanmagan o'rta	5	
Shavina A.N.	Bo'lim mudiri (0.5)	1898 49	O'rta	5	nemis va fransuz
Gutenmaxer B.	Bibliograf	1926 21	7 sinf ma'lumoti	6	--

Ma'lumoti bo'yicha oliy 1 ta, tugallanmagan oliy – 1 ta.

Kutubxona mudiri Z. Kostrova va qayta ishlov berish muharriri M. Drobinskaya O'zbekiston Fanlar qo'mitasi huzuridagi ilmiy kutubxonalar kutubxonachilari uchun 8 oylik malaka oshirish kurslarini tamomlagan. Barcha kutubxona xodimlari kutubxonachilik ishi va tibbiyot tarixi bo'yicha kurslarida o'qigan.

Bosh muharrir K. Shishova kechki marksizm-leninizm universiteti (hozirgi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti)ni tamomlagan.

E. Popova, E. Prostolupova, N. Selezneva, A. Shavina, K. Shishova Moskva shahridagi Davlat markaziy tibbiyot kutubxonasida ilmiy kutubxonalar kutubxonachilari uchun malaka oshirish kurslarida o'qigan[5].

Xodimlarning aksariyati o'rta va tugallanmagan o'rta ma'lumotga ega. Jami xodimlar orasidan 11 ta xodim xorijiy tillardan fransuz, nemis, ingliz, lotin tillarini bilishlari keltirilgan. 55-60 yoshlilar soni - 4 ta, 50-55 yoshlilar soni - 3 ta, 40-50 yoshlilar soni - 9 ta, 17-25 yoshlilar soni - 4 ta. Kutubxonada belgilangan lavozimlar orasida o'zbek millatiga kutubxonachilar soni 1 tani tashkil etadi. Kutubxona shtatdagi xodimlarning barcha ayol qizlardan iborat.

1946-yil 26-yanvardagi O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligi Xalq komissarligi kengashi shtat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan 17-317-sonli shtat jadvalida direktorning oylik maosh okladi 1200 so'm, ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari va komplektlash bo'limi mudiri 1000 so'm, bo'lim mudirlarining oylik maoshlari 980 so'm, kutubxonachilarning oylik maoshlari esa 550 so'm miqdorida belgilangan [6].

Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi xodimlari respublikamizdagi tibbiyot kutubxonachilari va unda faoliyat olib borayotgan mutaxassis xodimlar haqida ham statistik ma'lumotlarni jamlab tahlil qilgan hamda ularga metodik rahbarlikni amalga oshirgan. 1949-yilda O'zbekistonda 30 ta tibbiyot kutubxonasi mavjud bo'lib, kutubxona xodimlari soni 61 nafarni tashkil etgan[7].

Kutubxona oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda, qolaversa mutaxassis xodimlarning to'laqonli rejada

belgilangan vazifalarni bajarishda yaratilgan sharoit va imkoniyatlarning o'rni ham juda katta ahamiyatga ega. Kutubxona ko'pincha og'ir sharoitlarda ishlashga to'g'ri keldi. Ushbu 16 yil ichida katta kitob fondiga ega kutubxona to'rt marta ko'chirilgan, oxirgi ko'chish 1951-yilda juda og'ir sharoitlarda amalga oshirilgan. Kutubxona umumiy 263 kv. metr. maydonda joylashgan. Kitob saqlash xonalari uchun 122 kvadrat metr maydon ajratilgan. Bino ish hajmi va kutubxonaning kitob fondi hajmiga mos kelmaydi. O'quv zali yuq, kitob berish bo'limi va fondning bir qismi joylashgan xonaga kitobxonlar uchun ikkita stol qo'yilgan bo'lib, ularga bir vaqtning o'zida 9 kishidan ortiq kitobxon sig'maydi.

Kitoblar qisman javonlarda, qolgan qismi bog'langan holda barcha xonalarda polda taxlangan. Faqat xorijiy adabiyotlar alohida ajratilgan xonada joylashtirilgan. Binolarning haddan tashqari torligi sababli sanitariya-gigiena holati talablariga javob bermaydi [8].

Kutubxonaning yil sayin faoliyati takomillashib borgan sari, fondlarni saqlash, kitobxonalarga xizmat ko'rsatish, hududlar bilan ishlash va boshqa belgilangan ishlarda qo'shimcha lavozimlar va bo'limlar ham tashkil qilish zaruriyati paydo bo'lgan. 1959-yilning ikkinchi yarmida O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qo'shimcha ravishda kutubxonaga metodist lavozimi ajratilgan. 1960-yilda esa 3 ta shatat birligidan iborat Xorijiy adabiyotlar bo'limi tashkil etilgan. 1968-yilga kelib Sirtqi jamoa va kutubxonalararo abonementlar sektori, ilmiy-uslubiy sektor va ilmiy axborot bo'limi tashkil etilgan. 1969-yilda esa kutubxona filiallari tashkil etilgan.

Shu o'rinda davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasining mustaqillik yillarida kutubxonachi kadrlar bilan ta'minlanishini qo'yidagi solishtirma jadval orqali ma'lumot berishga harakat qildik. Bunda kutubxona smetasi bo'yicha jami shtatdan sohaga tegishli ya'ni kutubxonachi mutaxassis kadrlar soni alohida ajratib olindi.

Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasining 1991-2000 yillarda kutubxonachi kadrlar bilan ta'minlashi hamda ularning ma'lumoti staji bo'yicha solishtirma jadvali [9].

1991 yil I yanvar holatiga jami kutubxona xodimlari soni 64 tani tashkil etadi.			2000 yil I yanvar holatiga jami kutubxona xodimlari soni 46 tani tashkil etadi.		
t/r	Bo'limlar nomi	Xodimlar soni	t/r	Bo'limlar nomi	Xodimlar soni
1	ma'muriy-boshqaruv apparati	6,5	1	ma'muriy-boshqaruv apparati.	4,5
2	Komplektlash	5	2	Komplektlash va ilmiy ishlov berish bo'limi	7
3	Ilmiy ishlov berish	5	3	Ilmiy-bibliografiya	5
4	Ilmiy-bibliografiya	8	4	Xizmat ko'rsatish	6
5	Xizmat ko'rsatish	8,5	5	Kitob saqlash	6
6	Kitob saqlash	8	6	Ordel inostrannoy chasti SIFa i informatsionnogo obslujivaniya	6
7	Ordel inostrannoy chasti SIFa i informatsionnogo obslujivaniya	8	7	Ilmiy tadqiqot va metodik ishlar sektori	2
8	Ilmiy-metodika	4	8	Ordel materialno-texnicheskogo snabjeniya	10,5
9	Kopirovalno-mnojitelnyy	4			
10	Xozpersonal	7,5			

Ma'lumoti buyicha

1991 yil I yanvar holatiga		2000 yil I yanvar holatiga	
Ma'lumoti bo'yicha	Soni	Ma'lumoti bo'yicha	Soni
Oliy	18	Oliy	12
kutubxonachilik	30	kutubxonachilik	23
O'rta maxsus	2	O'rta maxsus	6
kutubxonachilik	4	kutubxonachilik	
Umumiy o'rta ma'lumotli	1	Umumiy o'rta ma'lumotli	2
bo'sh ish o'rinlari	9	bo'sh ish o'rinlari	3

Kutubxonachilik staji bo'yicha

1991 yil I yanvar holatiga	2000 yil I yanvar holatiga
----------------------------	----------------------------

Staji	Yili	Staji	Yili
5 yilgacha	3	5 yilgacha	11
5 yildan 10 yilgacha	10	5 yildan 10 yilgacha	3
10 yildan 15 yilgacha	10	10 yildan 15 yilgacha	5
15 yildan 20 yilgacha	9	15 yildan 20 yilgacha	5
20 yildan yuqori	23	20 yildan yuqori	19

Berilgan solishtirma jadvallardan ko'rinadiki, 1991-yilga nisbatan 2000-yilda kutubxonaga ajratilgan shtatlar, bo'limlar qolaversa xodimlarning ma'lumoti va staji sonida anchagina tafvutlar seziladi. Bunga ayrim sabablarni keltirish mumkin. Kutubxona shtatlarining optimallashtirilishi, ajratilgan mablag'larning kamayishi, kadrlar qo'nimsizligi, hukumat va tegishli vazirlik tomonidan kutubxonachilik sohasiga e'tiborning kamayishi, bozor iqtisodiyotiga o'tilishi va boshqalar. Lekin 2006 va undan keyingi yillardan boshlab Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasida hamda yurtimizdagi deyarli barcha kutubxonalarda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotganligini kuzatish mumkin.

Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasining salkam bir asrlik ya'ni 90 yillik faoliyatida kutubxona direktorlarining sohani rivojlantirishga qo'shgan hissasini keltirib o'tmasdan iloj yo'q. Kutubxona rahbarlari Mestnik Tamara Moseevna (1935-yildan 1944- yilgacha), Kostrova Zoya Arkad'evna (1944-yildan 1958-yilgacha), Shabanova Galina Konstantinovna (1958-yildan 1996-yilgacha) Bolkunova Faina Vladimirovna (1996- yildan hozirgi kungacha) katta hissa qo'shdilar.

Mestnik Tamara Moseevna eng og'ir yillarda kutubxonaga rahbarlik qilgan. O'sha davrlarda tibbiyot xodimlarini zarur adabiyotlar bilan ta'minlashga intilgan, shtatlar kengaydi, kitob fondi ko'paydi. Kitobxonlar tarkibiga ko'plab amaliyot shifokorlari, o'rta tibbiyot xodimlari, professor-o'qituvchilar, dotsentlar, aspirantlar jalb etilgan.

Kostrova Zoya Arkad'evna davrida kutubxonaning moddiy bazasini mustahkamlash va tibbiyot xodimlariga adabiyot bilan xizmat ko'rsatish bo'yicha ish darajasini oshirish bo'yicha o'zgacha g'ayrat bilan tashabbus ko'rsatdi. U kitobxonlarni keng qamrab olish, tibbiy kitobni keng targ'ib qilish, kitob fondlari va kataloglarni tashkil etish, xorijiy adabiyotlar bilan ishlashni yaxshilash, respublikadagi tibbiyot kutubxonalari tarmog'iga metodik yordam ko'rsatish, bibliografik ko'rsatkichlarni nashr etish bo'yicha tadbirlarni yanada katta ishtiyoq bilan o'tkazishini juda istardi. Bu sezgir va kamtar o'rtoq qat'iyatli, qat'iyatli va prinsipial xodim. Uning faoliyati kutubxona tarixida sezilarli iz qoldirdi. Shabanova Galina Konstantinovna davrida kitobxonlarga xizmat ko'rsatish va moddiy bazani mustahkamlash borasidagi ishlarni yaxshilash borasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Har yili komplektlash uchun mablag'lar 40 ming rubldan 70 ming rublgacha yetkazildi.

Kutubxona ilmiy xodimlar va amaliyotchi shifokorlarni tibbiyot fanining yangiliklari, individual bibliografik ma'lumotlarni tashkil etish yo'llari, yangi adabiyotlar haqida axborot byulletenlari, bajarilgan bibliografik ma'lumotnomalar haqida byulletenlar, uslubiy xatlar tarqatish haqida kengroq xabarador qila boshladi. Respublika tibbiyot kutubxonalari tarmog'iga metodik rahbarlik qilishda ham katta yutuqlarga erishildi.

F. V. Bolkunova tibbiyot kutubxonasini rivojlantirishga va takomillashtirishga ma'lum hissa qo'shdi. Xorijiy jamoat tashkilotlari va xayriya jamg'armalari bilan aloqalarni o'rnatishda faol ishtirok etdi. Uning tashabbusi bilan 1996-yildan boshlab Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasini Yevropa tibbiyot kutubxonalari assotsiyasi va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST) markazi a'zosi hisoblanadi, 1998-yildan boshlab kutubxonaga JSTning O'zbekistondagi depozitariy kutubxonasini vazifalari yuklangan.

Uning rahbarligida kutubxona 1998-yildan boshlab bir nechta loyihalarni amalga oshirdi. Kutubxonani avtomatlashtirish, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirish uchun grantlar olindi.

Xulosa. Ma'lumki davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasini fondlarining mazmuni va belgilangan maqsadiga ko'ra maxsus axborot-kutubxona muassasasi hisoblanadi. Uning fondida maxsus, ya'ni tibbiyot va turdosh sohaga oid adabiyotlar saqlanadi. Xodimlardan ham kutubxonachilik sohasi bo'yicha hamda tibbiyot va turdosh sohaga oid eng kamida boshlang'ich ma'lumotga hamda maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishlikni talab etadi. Kutubxona tajribali, bilimli, malakali kutubxonachilik ma'lumotiga ega kadrlar bilan ta'minlansa, kutubxonaning oldiga qo'yilgan vazifalari, fondning sifatli to'ldirilishi, saqlanishi, kitobxonlarga xizmat ko'rsatilishi va boshqa eng muhim jarayonlar to'liq va aniq bajariladi. Natijada kitobxonlar, tibbiyot xodimlari zarur ma'lumotlarni o'z vaqtida egallashi, bilim, tajribaga ega bo'lib bo'ladi. Shifokorlar kutubxonadagi egallagan bilimni amaliyotga joriy qilib tibbiyot sohasini yanada rivojlantiradi, aholining salomatligini ta'minlaydi, kasalliklarning oldini oladi, da'volaydi.

Bir bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kutubxona kadrlarining jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi natijasida yurtimizda sog'lom, jismonan, ma'nan boy aholi ko'payadi.

ADABIYOTLAR

1. Косимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик иши тарихи. Маданият институти ва маданий оқартув техникумлари учун ўқув кўлланма.- Тошкент : Ўқитувчи, 1977.- Б. 76
2. Давлат илмий тиббиёт кутубхонасининг жорий архиви
3. Доклад директора Государственной научной медицинской библиотеки В. А. Костровой на Всесоюзном совещании работников медицинских библиотек сети министерства Здравоохранения СССР. Ўзбекистон илмий техника ва тиббиёт хужжатлари Миллий архиви, фонд 196, рўйхат 1. Б. 1.
4. Годовой отчет о работе Государственно научно медицинской библиотеки за 1947 год. Ўзбекистон илмий техника ва тиббиёт хужжатлари Миллий архиви, опись 1. Архивн. 4541. Связка 285.
5. Годовой отчет о работе Государственной научно-медицинской библиотеки за 1952 год. Ўзбекистон илмий техника ва тиббиёт хужжатлари Миллий архиви. Архивн. 6936, связка 459
6. Республиканская научно-медицинская библиотека Штатное расписание на 1946 год Ўзбекистон илмий техника ва тиббиёт хужжатлари Миллий архиви. Фонд 196. Рўйхат 1. Саклов бирлиги 1. варақ 1
7. Доклад директора Государственной научной медицинской библиотеки В. А. Костровой на Всесоюзном совещании работников медицинских библиотек сети министерства Здравоохранения СССР. Ўзбекистон илмий техника ва тиббиёт хужжатлари Миллий архиви, фонд 196, рўйхат 1. Б. 7.
8. Годовой отчет о работе Государственной научно-медицинской библиотеки за 1952 год. Ўзбекистон илмий техника ва тиббиёт хужжатлари Миллий архиви. Архивн. 6936, связка 459. С. 2-3.
9. Жадвалга тааллуқли маълумотлар Давлат илмий тиббиёт кутубхонасининг 1991 ва 2000-йиллар ҳисоботидан олинган.